



Normengova Dildora Mahmarasul qizi

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya: qishning ziynati hisoblanmish qorning barakaliligi, she'riyatimizda qorning turli xil obrazlarda kelishi, qorning tabiat va inson uchun foydaliligi tasvirlari. Maqolada shular haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: qish, qor, ramz, baraka, qor obrazi, badiiyat, xalq lirikasi, beg'ubor bolalik, Yangi yil, she'riyat.

Go'zal va jannatmakon yurtimizning to'rt fasli mavjud bo'lib, bir- biridan yoqimli, to'rt faslning ham o'z gashti va o'z shodligi mavjuddir. Yoqimli va zavqli fasllarimizdan biri bo'lgan qish faslini oladigan bo'lsak, qish o'lkamizning ajoyib-u g'aroyib, yoqimli va quvonchli fasllaridan biridir. Qish deganimizda kimgadir zavqlanish, kimgadir uyqu, kimgadir jo'shqin ijod, yana kimgadir bayramlar fasli bo'lsa, kimlarga yoqimsiz, qiyinchiliklar faslidir. Qish deganimizda eng avvalo, ko'z o'ngimizda oppoq qor gavdalanadi. Deyarli qish faslida qor tevarak- atrofimizni o'rab oladi. Ilk qorni ko'rganimizda yosh-u qari barchamiz birdek zavqlanamiz. Shirin xotiralarni yodga olamiz. Birinchi qor mo'l- ko'pchilik, baraka ramzi deyiladi. Osmondan go'yoki qut – baraka yog'ayotgandek.

Nahl surasi 11- oyatida keltirilishicha: “ Har bir qor zarrasi osmondan tushgan mukammal san'at asaridir. Ana shu bir dona qor zarrasining o'ziyoq inson zotiga Buyuk Yaratuvchini tanishga kifoya qiladi. Ya'ni, albatta, bunda tafakkur qiladigan qavmlar uchun oyat belgilari bordur ”.

Qor parchalari juda ham ajoyibdir. Amerikalik tadqiqotchi olim Vilson Bentley 50 yil davomida olib borgan kuzatishlari natijasida hech qachon ikkita bir xil qor parchalarini topa olmagan ekanlar.

“Qish faslining ziynati hisoblanmish qor nafaqat yerda, balki Marsda ham mavjud ” – degan qarashlar ham mavjuddir. Qor parchalari kristallarining deformatsiyalanishi tufayli kristall ko'rinishida bo'lar ekan. Ma'lumotlarda keltirilishicha: Yaponiyada qor parchalari muzeyi ham tashkil etilgan ekan. Findlandiyada yashovchi Sam xalqi tilida qor, muz, va ularning turlari uchun 180 ga yaqin so'zlar bor ekan.

N. Erkaboyevaning “O'zbek tilida ma'ruzalar to'plami” kitobida keltirilishicha: “Shimoliy qutbda yashaydigan **eskimos** qabilasiga mansub millat tilida “ qor ” so'zini anglatuvchi 20 dan ortiq so'z mavjud ekan.”³⁴

³⁴ Erkaboyeva N. “O'zbek tilida ma'ruzalar to'plami”. – T.: “Yosh kuch”, 2021. – B.4





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Qor yog'ganda hamma xursand bo'ladi. Dillarda quvonch, shodlik to'ladi. Qish qori bilan zavqlidir. Buyuk shoirimiz Cho'lponning "Qor" she'rida qorni shunday tasvirlaydi:

*Har tomonda qor, qor, qor...
Yel bilan tushar, chiqar.
Bulutlar elab, elak,
Separ oppoq kapalak... [6.122]*

Bulutlardan tushayotgan qor parchalarini elakda elanayotgan un misoli tasvirlash orqali **tashbeh** san'atini yuzaga keltirgan. Un zarrachalaridek oppoq qor parchalarini kapalakka qiyoslab, go'zal misol keltiradi.

Shoira S. Zunnunovaning "Qor yog'ar, biram xushhavo" satrlari bilan boshlanuvchi she'rida qorning yoqimli havosida do'stlarimiz bilan, yaqinlarimiz bilan sayr qilishimiz ko'ngillardagi har qanday dardlarga davo bo'lishini ta'kidlab, shunday yozadi:

*Qor yog'ar, qor yog'ar biram xushhavo
Qor yog'ar, qor yog'ar, ayni muddao.
Kelinglar, jo'ralar, bir dam kezaylik,
Kimki noxush bo'lsa topgusi davo.[5.36]*

Qor pokizalik, musaffolik, oppoq qordek orzular, beg'ubor bolalik ramzi. Qor bolalikda qilgan orzulardek musaffo. Yoshgina bolakaydan orzulari haqida so'raganimizda, uning orzularida zarracha ham g'ubor, g'araz va qoralikni ko'rmaymiz. Qor ham sof orzular kabi, deb olsak to'g'riroq bo'ladi deb o'ylayman. Chunki qorda ham zarracha g'ubor ko'rmaymiz. Shoir Xurshid Davron "Qor yoqqan kun" she'rida qorni shunday tasvirlaydi:

*Qor yog'ar...
Hayajon misli shamchiroq
Yoritib turadi yuragim ichin,
Barchasin sirini bilaman, biroq
So'z topa olmayman tasvirlash uchun..[7]*

Har birimiz yog'ayotgan qorni ko'rishimiz bilan zavqlanamiz, ko'nglimizda ajib bir his paydo bo'ladi. Shoir ushbu misralarida qor yog'ayotganda paydo bo'lgan hislarimizni tasvirlayotgandek nazarimda.

*Garchand qish, qahraton, ayoq sanchar tig',
Qalinlashib borar o'ngirlarda qor.
Qish nafasi sovuq, ranglari tiniq.
Tiniq ranglar dildan tarqatar g'ubor.[2.123]*

Betakror shoiramiz Halima Xudoyberdiyeva ijodida qor obrazini takror-takror uchratishimiz mumkin. Shoiramiz yuqorida keltirilgan "Qor uchqunlayapti" she'ridagi misralarida qish shunchalar sovuq bo'lsa ham, qorning go'zalligi ko'ngillardagi g'uborlarni ketqazib, olamni nurafshon qiluvchi obraz sifatida





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

tasvirlagan bo'lsa, “**Qor uchqunlab turganda...**” she'ridagi quyidagi misralarida esa, shunday deydi:

*Ko'p narsalar kelar esga, qor uchqunlab turganda,
Ko'hna dunyo yoshdir ko'zga, qor uchqunlab turganda.
G'amlar toshi yuragingdan ko'cha boshlar birma-bir
Sen o'zgasan, hasrat o'zga, qor uchqunlab turganda... [3.26]*

Qor bu shirin xotiralarni yodga soluvchi, nafaqat, tabiatni, balkim inson ko'nglini yoshartiruvchi obraz hisoblanadi. Shoirimiz qor uchqunlarining musaffoligidan inson yuragidagi g'amlari o'z-o'zidan yo'qolib, hasratlarni unutgan o'zga bir shaxsga aylanishini ta'kidlayotgandek nazarimda.

Qish fasli qori bilan yoqimli bo'lganligi bilan go'zal bayrami bo'lmish “Yangi yil” – yangilanish bayrami ham qish faslining ko'rkidir. “Yangi yil” bayrami deyilganda, oppoq qorda nishonlanayotgan, go'zal qilib yasatilgan archa atrofida Qorbobo va Qorqiz kiyimlarini kiyib, barchaga shodlik ulashayotgan insonlar barchamizning ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Jonkuyar shoirimiz Iqbol Mirzo she'riyatidagi “**Yangi yil**” she'rida qor obrazini shunday tasvirlaydi:

*Qor zarrasin tutib qololmas nigoh,
Goh zarra nigohdan bag'rim tilindi.
Qor yog'sin – yopilsin izlaring, gunoh.
Yangi yil, yaxshi yil bo'lib kel endi. [4.74]*

Shoir ushbu baytining birinchi misrasida qor zarrasin tutib bo'lmaganidek, inson omadini ham tutib qolish mushkulligini tasvirlayotgandek, keyingi misralarida zarracha xatodan bag'rim tilindi, qor yog'sin ya'ni omadim kelsin, xatolarim yopilsin, Yangi yil menga omadli bo'lib kelsin deyotgandek nazarimda.

Yuqorida aytganimizdek qor baraka ramzi hisoblanadi. Qishda yog'gan qor butun yil mobaynida insonlarga ham, tabiatga ham foydalidir. Ota-bobolarimiz qishning qorini maqollar orqali shunday tasvirlaydi:

Qishning qahri- kuzga baraka.

Qishning qori- yozga dori.

Qor yog'di- don yog'di.

Qor- osh bilan non.

Qish faslining ziynati bo'lmish qor hamma turli xil taassurot qoldiradi. Har kim o'z tasavvur olamida qorni turlicha jilolantiradi, turlicha gavdalandiradi, turlicha tasvirlaydi. Har bir yozuvchi, har bir shoir qorni turlicha tasvirlab, turlicha she'rga solgandir.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eekaboyeva Nargiza. “O’zbek tilida ma’ruzalar to’plami” . – Toshkent: “Yosh kuch”, 2021. – 687 b.
2. Halima Xudoyberdiyeva. Saylanma. 1-jild, – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2018. – 424 b.
3. Halima Xudoyberdiyeva. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2020. – 560 b.
4. Iqbol Mirzo. “Ko’nglimda nima bor, bilmayman”. She’rlar. – Toshkent: Sharq, 2020. – 255 b.
5. Zunnunova S. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 480 b.
6. Cho’lpon. “Ko’klam ruhi”. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 175 b.
7. www.xurshid_davronkutubxonasi

